

ARXITEKTURA QURILISH ChIZMACHILIGI

Sharipova S

2015

TEMA: KIRISH.

*Binoning asosiy arxitekturaviy loihaviy
elementlari*

Respublikamizning barcha xududlarida kuplab qurilishlar olib borilmoqda. Yangi turli kwrinishdagi binolar qatorida ajdodlarimiz barpo etgan tarixiy yodgorliklar ta`mirlanmoqda, mutloq buzilib ketganlari qaytadan tiklanmoqda. Ba`zi alloma bobokalonlarimizga bag`ishlab yangi maqbaralar loyihalari, qurilmoqda. Bunday qurilishlar kwlami yangi er osti metrolarimiz, er usti sport komplekslari, milliy banklarimiz, kwpriklar, bozor, akademik litsey, kollej va fuqorolar kabilar va faqat shaharlarimizning kwrki, balki dune miqyosida

- Respublikamizning rivojlanayotgan davlatlari qatoriga qoʻshilishiga kafolat beradigan omillardan biri hisoblanadi.
- Qurilish madaniyati bizning xududimizda juda qadimdan boshlangan. Arxeologik qazilmalar natijalariga asoslangan holda miloddan avvalroq mustahkam qalʼa, shaharlar qurilgan, turli kanallar orqali sugʻorish orqali yuqori hosil olinganligi guvohi bulamiz.

Bino deganda barcha quriladigan inshootlar tushuniladi. Inshoot esa, insonlarning material va madaniy xojatlarini qoniqtira oladigan darajada qurilgan binolar.

Har bir inshootni qurishdan oldin obdon wylab, fikrlab, kwz oldiga keltirgandan kegin uning maketi, modeli yoki tekislikdagi yaqqol tasviri va chizmasi bajariladi.

Boshqacha qilib aytganda, wsha inshoot loyihalanishi lozim.

Qurilishda proektlovchi va ilmiy institutlar, konstruktorlik (loyihalash) byurolari, qurilish korxonalari, qurilish-montaj kabi kwplab zavod va tashkilotlar qatnashadi.

Arxitektura – qurilish va injenerlik inshootlari loyiha hamda smetalarga asosan quriladi. Loyihaga quriladigan inshootning chizmalari, tushuntirish xat va smetasi kiradi. Chizmada bajarilishi kerak bo'lgan ishlar, smetada esa inshootning to'la narxi ko'rsatiladi. Smetada yana bajariladigan ishlarning hajmi, qurilish buyumlari va ularning soni, mutaxassis ishchilar va qurilishda foydalaniladigan mexanizmlarning soni ko'rsatiladi. Loyiha hujjatlarini alohida loyiha tashkilotlari va institutlari tuzadi.

Qurilish ishlari umumqurilish va maxsus qurilishga bwinadi. Umum qurilishga binolarni qurish va pardozlash ishlari, maxsus qurilishga esa, suv, kanalizatsiya, elektr, gaz, telefon tarmoqlarini wtkazish, obodonlashtirish ishlari kiradi.

Umum qurilish va maxsus qurilish qismlarga ajratilganligi tufayli ish chizmalari ham alohida qismlarga bwinadi va har biriga marka qwyiladi.

Markalar ish chizmalarining turiga qarab, bosh harflar bilan belgilanadi.

Bosh plan va transport GT

Arxitektura chizmalari AR

Temir – beton konstruktsiyalar KJ

Pwlat konstruktsiyalar KM

Yog`och konstruktsiyalar KD

Suv wtkazish va kanalizatsiya VK

Isitish va ventilyatsiya OV

Elektr yoritish tarmoqlari EO

Qurilish chizmalarining loyihalash elementlari chizish mashinasozlik chizmalarini chizishdan bir oz farq qiladi va asosan ikki xil chiziqli qullaniladi. Qirqimga tushgan konturlar asosiy tutash chiziqlarda, qolgan konturlar, asosiy tutash chiziqlarda, qolgan konturlar, wcham chiziqlari ingichka tutash chiziqlarda chiziladi.

Qurilish chizmachiligining binolar (turar joy, maktab, korxona, kasalxona va boshqalar) chizmalarini chizishni wrgatadigan bwlmi arxitektura – qurilish chizmachiligiga kiradi. Shunga kwra arxitektura – qurilish chizmalarini chizish va wqishni kwrib chiqamiz.

Har qanday binoning loyihalash elementlari funktsional vazifasiga kura asosiy ikki: kwtaruvchi va twsuvchi guruhlariga ajratiladi. Binolarga yuklanish nagruzka tushishi sababli ularni loyihalash paytida nazarda tutiladigan barcha yuklanishlar hisobga olinadi. Twsuvchi konstruktsiyalar binoni atmosfera hodisalaridan saqlaydi. Ba`zi konstruktsiyalar ayni vaqtda ham kwtaruvchi, ham twsuvchi vazifalarini wtaydi.

Har bir bino quyidagi asosiy konstruktiv elementlar: poydevor, devor, ustunlar, yopmalar, zinalar, twsiqlar, tom, derazalar, eshiklar va hokazolardan tashkil topgan bwladi .

Qurilishda tatbiq qilinadigan joylarga qarab, turli standartlashtirilgan temir-beton buyumlardan foydalaniladi Undagi: 1-poydevor blogi, 2,3-ertwla uchun devoriy bloklar, 4-qavatlararo beton twshama, 5-yumaloq teshikli yopma plita, 6-rigel yoki uzun balka, 7-ustun, 8-zinapoya marshi, 9-chiqib turuvchi mozaikali plita, 10-balkon plitasi.



